

Тасдиқлайман

Олмазор туман мактабгача таълим
бўлими “Харид комиссияси” раиси


Н.Б.Мирзаева



Энг яхши таклифни танлаш бўйича харид қилиш хужжатлари

(янги қурилиш ва реконструкция объектлари учун)

1	Танлов ўтказиш услуги	Балл услуги (энг яхши таклиф танлови учун) иштирокчилар томонидан электрон тарзда https://etender.uzex.uz/ портали орқали тақдим қилинган хужжатларнинг техник ва нарх қисмлари комиссия аъзолари томонидан сифат ва ишончилиги ўрганилиб баҳоланади, энг юқори балл тўплаган иштирокчи ғолиб бўлади.
2	Иштирокчилар томонидан таклифларни қабул қилиш муддати	Ушбу эълон порталга жойлаштирилган кундан бошлаб, порталда тугаши белгиланган сана ва вақтгача
3	Танлаш хужжатларини тайёрлаш тили	Ўзбек ва рус тилларида
4	Боғланиш учун алоқа маълумотлари	Олмазор тумани мактабгача таълим бўлими Махсус эксплуатация бўлими БТХ, ИНҚ ва ЖБ муҳандиси – Пулатов Р.А.
5	Буюртмачи манзили	Тошкент шаҳар, Олмазор тумани, Ниёзова кўчаси, 19-уй

Тошкент 2022 й.

Асосий талаблар

Т/Р	Талаб номи	Тасдиқловчи ҳужжат
1	Ўзбекистон Республикаси Қурилиш Вазирлигининг рейтингда мавжудлиги	https://mc.uz/qurilish-pudrat-tashkilotlari-elektron-reytingi/ порталидан кўчирма
2	Ташкилотнинг Давлат идоралари рўйхатидан ўтказилганлиги ҳақидаги гувоҳнома мавжудлиги	Гувоҳнома нусхаси
3	Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар (Ф.И.Ш., лавозими ҳамда иш тажрибаси (йил) ҳақида тўлиқ маълумот, QR коди билан	Маълумотнома QR коди билан
4	Қурилиш ишларини амалга ошириш учун зарур бўлган механизм ва техникалари мавжудлиги (тасдиқловчи ҳужжатлари билан)	Механизм ва техникаларнинг рўйхати
5	Объектни жойига чиқиб кўрилганлиги ва ишларни ўз вақтида топшириш тўғрисида қафолат хати	Маълумотнома (олинганига бир ойдан ошмаган бўлиши шарт)
6	Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги	Маълумотнома (олинганига уч кундан ошмаган бўлиши шарт)
7	Банкдан картотека мавжуд эмаслиги ҳақида асл нусхада маълумотнома	Маълумотнома (олинганига уч кундан ошмаган бўлиши шарт)
8	Қурилиш ишларини олиб бориш муддати (асословчи ҳужжатлар билан)	Умумий ишлаб чиқиш графиги
9	Танлов объектга ўхшаш давлат буюртмачилигидаги объектларда охириги уч йиллик иш тажрибаси	Асословчи ҳужжатлар
10	Танлов иштирокчилари томонидан коррупция кўринишига йўл қўймаслик бўйича қафолат хатининг мавжудлиги	Қафолат хати

Таклифни расмийлаштиришга доир талаблар.

Иштирокчи ўз таклифларини электрон кўринишда <https://etender.uzex.uz/> порталига электрон танловлар ўтказиш учун жойлаштириши лозим.

Таклифларни баҳолаш меъзонлари ва кўриб чиқиш тартиби.

Иштирокчилар кўйилган талаблар учун тақдим қилган ҳужжатларига, яъни техник қисмининг миқдорий кўрсаткичлари ва нарх қисмининг миқдорий кўрсаткичлари учун умумий 100 балл тўплашлари мумкин.

Эслатма: Техник қисмдаги бирорта талабга жавоб бера олмаган иштирокчилар танловдан дисквалификация қилинади.

Ижрочилар билан ҳисоб – китоб тартиби.

Ғолиб билан ҳисоб-китоб миллий валюта (сўм)да амалга оширилади. Танлов ғолибига шартнома қиймати бир миллиард сўмгача бўлса 30%, ундан юқори бўлган тақдирда 15% (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 16 мартдаги 139-сонли қарорига асосан) миқдорда олдиндан тўлов ўтказиб берилади. Қолган маблағ ғолиб лойиҳа ташкилоти томонидан лойиҳа-смета ҳужжатлари тўлиқ ишлаб чиқилиб 3 нусхада ва электрон шаклда буюртмачига тақдим қилиб, экспертиза хулосаси олинганидан сўнг ўтказиб берилади.

Олмазор туман МТБ ДХББ мутахасиси:



Турсунов С.И.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:
dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana:06-10-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 64211

Obyekt nomi «Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan 28-DMTT ni joriy ta'mirlash.»

Buyurtmachi - Toshkent shahri, Olmazor tumani maktabgacha ta'lim bo'limi.

Bosh loyihachi - "COMPLEX GRAPHICS" MChJ.

Litsenziya AL-001501-son O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan
27.11.2022-yilda berilgan.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Joriy ta'mirlash.

Murojaat raqami: № 60699

1. Loyihalash uchun asos

1. Toshkent shahar hokimining 18.07.2022-yildagi 736-14-0-Q/22-son va Olmazor tumani hokimining
27.07.2022-yildagi 442-14-197-Q/22-son qarorlari.

2. Buyurtmachi tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan loyiha topshirig'i va unga ko'ra tuzilgan nuqson
dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

1. Ekspertiza ko'rigiga qadar ob'jektning ta'mirlash ishlarining loyiha tashkiloti tomonidan nuqsonli
dalolatnomaga asosan tayyorlangan smeta hujjatlari. Umumiy qiymati buyurtmachining boshqa
xarajatlarisiz, 15% QQS bilan hisoblanganda - 1 076 674,788 ming so'mni, me'yoriy mehnat sarfi resurs
smetasi bo'yicha - 3 748,0 kishi/soatni tashkil etadi.

2. Ob'yekt yig'ma lokal resurslarining ro'yxati (Ishlatiladigan mashina va mexanizmlar hamda qurilish
materiallar ro'yxati).

3. Buyurtmachining 22.09.2022-yildagi 01-01/8-642-son murojaat xati.

4. Buyurtmachi va loyiha tashkilot o'rtasida 24.08.2022-yilda tuzilgan 3978-son shartnoma.

5. Smeta hujjatlari.

6. AS loyiha hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

1. Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan 28-DMTT ni joriy ta'mirlashda "plastik" eshik va romlarni o'rnatish, eshik va rom qirralarini suvash, bo'yash, issiqlik tizimi quvur va jihozlarini almashtirish, nasos o'rnatish, tom qismi eski shifer qoplamalarini olib tashlab, tutib turuvchi tom yog'och qismini ta'mirlab, "profnastil" materialini yopish, bino ichki xonalarida qisman pardoqlash ishlarini bajarish kabi ta'mirlash ishlarni o'z ichiga oladi.

2. Ishchilarning bir soat uchun o'rtacha ish haqi, ob'yektning dastlabki bahosini aniqlashda hudud bo'yicha quruvchilarning o'rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanib, me'yoriy mehnat sarfini 1 kishi-soat ko'rsatkichining joriy narxiga (so'm) ijtimoiy sug'urta to'lovlari (12%) bilan qo'shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati – 31 086,46 soat/so'm belgilangan.

3. Qurilish materiallari uchun sarflanadigan transport xarajatlari – 3 %.

4. Jihozlar uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori – 2,0 %.

5. Pudratchining boshqa xarajatlari – 17,27 %.

6. Qo'shimcha qiymat solig'i – 15 %.

7. Ta'mirlash ishlarining xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Smeta hujjatlarida ichki isitish tizimini ta'mirlash ishlari ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Smeta hujjatlarida buyurtmachi bilan kelishilgan.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlari talablariga amal qilsinlar.

6. Ekspertiza natijalari.

1. Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida to'g'rilanib qayta to'ldirildi:

- ekspertiza tekshiruvi hamda smetadagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida smeta ko'rsatkichlari 18 173,373 ming so'mga kamaytirilib, 15% QQS bilan hisoblanganda 1 058 501,415 ming so'm qilib belgilandi;

- dastlabki smeta hujjatlari hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi resurs smeta me'yorlari, qurilish materiallarining narxlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi (Loyiha tashkilotining javob xatini inobatga olgan holda).

2. Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalar va inventarlarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmaydi.

3. Buyurtmachi ob'yekt bo'yicha o'rnatiladigan barcha asbob-uskuna, jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlarni sotib olishida 2021 yil 22 apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi 684-son qonun talablariga rioya etilsin.

4. Smeta hujjatlariga asosan joriy ta'mirlash ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

5. Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli

organlar bilan kelishishi lozim.

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'yektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan.

7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-son qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq, ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliliigi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

8.Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo'yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

9.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

10.Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

11.Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, e'tiroz va qo'shimcha ko'rsatmalar mavjud emas.

12.Buyurtmachiga qurilish materiallari va uskunalarining narxlarini mintaqaviy bozor narxlari, shuningdek bevosita ishlab-chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) narxlari, qurilish materiallarining birja va yarmarka narxlari bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi.

13.Ob`ekt bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Hokimining 18.07.2022-yil 736-14-0-Q/22-son qarorining 1-ilovasi, 13-bandiga asosan qurilish uchun 1 000 000,00 ming so`m ajratilgan. Buyurtmachi taqdim etilgan barcha ishlarni bajarish uchun o`rnatilgan tartibda tegishli tashkilotlar bilan kelishuv bayonnomasi asosida qo'shimcha mablag` ajratilishi kelishilsin va limit miqdori qayta ko`rib chiqilsin.

7. Xulosalar.

1. "**Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan 28-DMTT ni joriy ta'mirlash**" ishlarini amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlarsiz, 15% QQS bilan hisoblanganda **1 058 501,415** ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- qurilish materiallari va mahsulotlari hamda konstruktsiyalar uchun sarflanadigan xarajatlar - 667 913,144 ming so'mni;

- jihoz va uskunalar uchun sarflanadigan xarajatlar - 1 782,960 ming so'mni;

-asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda - 112 578,624 ming so'mni;

- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 2 874,014 ming so'mni;

- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27 %) - 135 287,271 ming so'mni;

- qo'shimcha qiymat solig'i (15%) - 138 065,402 ming so'mni tashkil etadi.

2. Tavsia etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan joriy ta'mirlash ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

Bosh mutaxassis: Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich